

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

OTAJANOVA LOLA OZODOVNA

**XIVA XONLIGI SOLNOMASI TARJIMASIDA TARIXIY
KOLORITNING BERILISHI
(“Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasi misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по филологическим наукам**

Otajanova Lola Ozodovna

Xiva xonligi solnomasi tarjimasida tarixiy koloritning berilishi (“Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasida misolida).....3

Otajanova Lola Ozodovna

The conveyance of historical color in the translation of Khiva Khanate chronicle (as an example of Y.Bregel’s translation of the work “Firdaws al-iqbal”).....27

Отаянова Лола Озодовна

Передача исторического колорита в переводе хронологии Хивинского ханства (на примере перевода Ю.Брегеля произведения «Фирдавс уль-Икбал»).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

OTAJANOVA LOLA OZODOVNA

**XIVA XONLIGI SOLNOMASI TARJIMASIDA TARIXIY
KOLORITNING BERILISHI
(“Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasi misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil4459 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasining www.urdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Doniyor Taxirovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Cho'ponov Otanazar Otajanovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Teshaboyeva Ziyoda Qodirovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning "17" *aprel* 2025-yil soat *9* : *00* dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; faks: (+99862) 224-67-00 e-mail: fil-ik@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*A-1657* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "*26*" *mart* kuni tarqatildi.
(2025-yil "*26*" *mart* dagi *48* raqamli reestr bayonnomasi).



D.Q.G'ayipov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

S.S.Atajanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.D.O'razboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligidagi tadqiqotlarda sohaning shakllanish bosqichlari, tamoyillari, nazariy poydevori, maqsadlari, muammolari, tarjima yo'llari, asliyatga moslik darajasi, turli millat va etnik guruhlar tillaridagi ekstralingvistik jihatdan o'xshash jihatlarini topish hamda tafovutlarini bartaraf etishning tarjima jarayonidagi ahamiyati masalalari, umuman, tarjimaning lingvistik xususiyatlari turli aspektlarda yoritilgan. Bu borada ingliz, nemis, rus tarjimashunoslarining salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari keyingi izlanishlarga nazariy va amaliy asos vazifasini o'taydi. Zero, bu yo'nalishda asl manbaning milliy-tarixiy o'ziga xosligini tashkil etuvchi til birliklarini o'rganish, tarjimonning mutarjimlik mahoratini ochib berish tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Dunyo tarjimashunosligida tarjima lisoniy faoliyatga asoslangan holda xalqaro munosabatlarni shakllantirish, bilimlarni tarqatish va ma'lumotlarni uzatishda muhim ahamiyat kasb etishi, bugungi globallashtirilgan dunyoda hamkorlik ko'priklarni qurish uchun manba tili, uning mohiyati, tarjima tili va madaniyatini mukammal tushunadigan mohir tarjimonlar talab qilinishi ochiq dalillangan. Lekin aniq va to'liq tarjima mahsuliga erishish uchun qaysi usul yoki qoidani qo'llash borasida umumiy kelishuv hanuzgacha mavjud emas. Bu borada tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolari, ayniqsa, asliyatdagi *realiya, madaniy terminlar, madaniy so'zlar, madaniyatga oid elementlar, madaniyatga oid tushunchalar, madaniy xos so'zlar, lakunalar, ekzotizmlar, alienizmlar, lokalizmlar, etnografizmlar, probellar, lingvokulturemalar, ksenizmlar, muqobilsiz leksika, xos so'zlar* kabi turli istilohlar bilan ataluvchi madaniy birliklarning tarjimasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tarjimashunosligida ham soha shakllanishining tarixiy asoslari, tarjima nazariyasi va amaliyoti, asliyat va tarjimaning muvofiqlik masalalari, tarjimadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, tarjima tanqidiga oid qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, "Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgan, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllangan"¹. Bugungi kun tarjimashunosligida asliyatning o'ziga xosligi va tarixiylikining tarjimadagi ifodasi, bu jarayonda tarjimon mahorati, so'z tanlash masalasi ilmiy zarurat sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, "Firdavs ul-iqbol"ning chet tillarga tarjimasi, tarjima birliklarining asliyatga muvofiqligini ta'minlashda mutarjimning mahoratiga doir ilmiy tadqiqot ishlari monografik planda olib borilmagan. Bu asar tarjimasi, tarjimon metodi va mahorati masalalari, shuningdek, tarixiy-adabiy asar tarjimasining lingvokulturologik va lingvopoetik jihatdan o'rganish tarjimashunoslikning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, tarjimaning amaliy va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро микёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги, 2018 йил, 7 август.

nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan, “milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning, qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”² borasida olib borilgan ishlar sirasida tadqiqotimiz tarixiy koloritni ifodalovchi til birliklari, badiiy-tasviriy vositalarning tarjima qilish usullari va murakkabliklariga bag‘ishlanganligi dissertatsiya mavzusining zarurati hamda ahamiyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili maqomini yanada mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim muassasalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 18-maydagi PQ-376-son “Jahon adabiyotining tanlab olingan namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini yaxshilash va ularning respublika miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tarjimashunosligida ushbu sohaning nazariy asoslari va tamoyillari, tarjima usullari tasnifi, asliyatdagi muayyan til vakillarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, tarixiy, axloqiy tafakkur darajasini namoyon qiluvchi madaniy birliklarini tarjimada saqlash, umuman, tarjimada adekvatlikni ta‘minlash masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilingan. Jumladan, asliyat madaniy birliklarini tarjimada saqlash muammolari yuzasidan P.Nyumark, B.Nedergaard-Larsen, H.Vermeer, Ch.Nord, D.Katan, J.Pedersen, M.Beyker, J.F.Ayksela, M.Loponen, R.Leppihalm,

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги “Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

C.A.Shaffer kabi tarjimashunoslar ilmiy izlanishlar olib borgan va o'z xulosalarini taklif qilishgan³.

Rus tarjimashunosligida bir qancha tarjimashunoslar, tilshunoslar tomonidan asliyatdagi milliy va davriy xususiyatlarga ega birliklar sifatida realiyalarning tasnifi hamda ularni tarjima qilish usullari masalasi alohida tadqiq qilingan⁴. Jumladan, Z.G.Proshina realiyalarni semantik jihatdan 10 guruhga ajratishni, S.Vlaxov va S.Florinlar esa mahalliy tipologiya, davriy tipologiya va tematik tipologiyaga asoslangan holda guruhlariga ajratishni taklif qilishgan hamda ularning realiyalar borasidagi tasnifi ancha mukammal va dunyo tarjimashunoslari tomonidan tan olingan.

O'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov, N.Komilov, G.G'afurova, Q.Musayev, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova, E.Ochilov, I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov va boshqalar⁵ tarjimaning fan sifatida shakllanishiga, tarjima nazariyasi va amaliyoti, aslyat va tarjimaning muvofiqlik masalalari, tarjimadagi muammolar va qiyinchiliklar, ularning yechimlari, ularni bartaraf etish, tarjima tanqidi sohasining taraqqiy topishiga o'z hissasini qo'shishgan. Tarjimada aslyatning o'ziga xosligi va tarixiylikning ifodasi mustaqillikdan keyingi ilmiy izlanishlarda ham yoritilgan⁶. Ushbu dissertatsiyalar davr ruhi va badiiy tasvir

3 Newmark Peter. *Approaches to Translation*. – Oxford: Pergamon Press, 1981. – P.95.; Nedergaard-Larsen Birgit. *Culture-bound Problems in Subtitling, Perspectives: Studies in Translatology*, 1(2). 1993. – P.209.; Leppihalme Ritva. “Realia”, in Yves Gambier and Luc van Doorslaer (eds) *Handbook of Translation Studies*, vol. 2. – Amsterdam: John Benjamins, 2011. – P.328.; Nord Christiane. *Translation as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*, Manchester: St Jerome, 1997/2001. – P.34.; Schäffner C.A *a roof is an umbrella: metaphor, culture and translation. Identity and Difference – Translation Shaping Culture*. – Bern: Peter Lang AG, 2005. – P.49.

⁴ Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Ташкент, 1957. – С.66-67.; Федоров А.В. *Основы общей теории перевода*. – Москва: Высшая школа, 2002.; Бархударов Л.С. *Язык и перевод*. – Москва: Международные отношения, 1975.; Комиссаров В.Н. *Современное переводоведение. Учебное пособие*. – Москва, 2002.; Рецкер Я.И. *Теория перевода и переводческая практика*. – Москва: Международные отношения, 1974.; Швейцер А.Д. *Теория перевода Статус, проблемы, аспекты*. – Москва: Наука, 1988.; Влахов С., Флорин С. *Непереводимое в переводе*. – Москва: Международные отношения, 1980.; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. *Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного*. – Москва: Русский язык, 1987. – С.42.; Прошина З.Г. *Теория перевода*. – Владивосток: Дальневост. ун-та, 2008. – С.86.

⁵ Саломов Ғ. *Таржима назарияси ва амалиёти*. – Тошкент, 2003. – Б.49.; *Таржима назарияси асослари*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.104.; *Таржима назариясига кириш*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.40-41.; *Таржима ташвишлари (Масъул муҳаррир: М.Қўшжонов)*. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.35.; Саломов Ғ.Т. *Литературные традиции и проблемы художественного перевода: Дисс. ...докт. филол. наук*. – Ташкент, 1982.; Комилов Н. *Бу қадимий санъат*. – Тошкент: Адабий мерос, 2000. – 182 б.; Мусаев Қ. *Таржима назарияси асослари*. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.95.; Сирожиддинов Ш., Одилова Г. *Бадий таржима асослари. Масъул муҳаррир О.М.Муминов*. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.11.; Очилов Э. *Таржимашуносликнинг назарий масалалари*. – Тошкент, 2014. – 287 б.; G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. *Tarjima nazariyasi*. – Toshkent, 2012. – B.27.

⁶ Жавбўриев М. *Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш: Филол. фан номз. дисс. автореф.* – Ташкент, 1991. – 20 б.; Хамраев Х. *Воссоздание национального колорита и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дисс. канд. филол. наук*. – Ташкент, 1991. – 22 с.; Яркинова Б.Б. *Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши (Қирғиз адиби Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс.* – 2002. – Б.12.; Исоқова Ш. И. *Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши: Филол. фан. номз. ...дисс.* – Тошкент, 2004.; Иброҳимова Ш. О.Ёкубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши: Филол. фан номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 190 б.; Ходжаева Н. *Бадий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс.* – Тошкент, 2019. – 124 б.; Буранова Б. *Бадий таржимада тарихий-миллий колоритни сақлаш принциплари (“Юлдузли тунлар” романининг туркман тилидаги намунаси асосида): Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ...дисс.* – Тошкент, 2021. – 124 б.; Нўмонов Д. *Таржимада давр руҳини ифодалаш // Таржима муаммолари: К.2.* – Тошкент: Самарқанд, 1991. –

vositalarining tarjimada asliday saqlab qolishga qaratilgan tarjimashunoslik fanining dolzarb muammolarini o‘z ichiga olgan. Shuningdek, bu tadqiqotlarda tarjima jarayonida tarjimon mahorati, so‘z tanlash masalasi va tarjimaning ekstralingvistik muammolari ham tadqiq qilingan.

O‘zbek tarjimashunosligida sezilarli ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo Xiva xonligiga oid solnomalarning ingliz tili tarjimalarining ekstralingvistik va stilistik jihatlari, asliyat badiiyatining tarjimada saqlanishi hamon monografik planda o‘rganilmagan. Binobarin, Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” tarixiy-adabiy asarining Yuriy Bregel tomonidan amalga oshirilgan tarjima variantida tarixiy koloritni berish, xonlik saroyidagi mansab va rutba, milliy-tarixiy kiyimlar, milliy taom nomlari va ularning tarjima usullari, tarixiy koloritni ifodalovchi badiiy tasvir vositalarining mutarjim tomonidan berilishi kabi masalalar juda ahamiyatli bo‘lib, shu kunga qadar yetarlicha ochib berilmadi. Ushbu ishimizda “Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasida misolida tarixiy koloritning realiyalar va uslubiy figuralar orqali ifodasi hamda tarjimada saqlanish masalalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya Urganch davlat universitetining “Ingliz tilini o‘rganishda chog‘ishtirma tilshunoslik va adabiyotshunoslik, tarjimashunoslikning o‘rni” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xiva xonligi solnomasi tarjimasidagi tarixiy koloritning berilishida tarjima usullari va tarjimon mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xorazm tarixnavislik an’anasida “Firdavs ul-iqbol” asarining o‘rni va Y.Bregelning bu asar tarjimasida jarayonidagi ilmiy izlanishlarining ahamiyatini yoritish;

turli istilohlar bilan yuritiluvchi va o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan realiyalarning jahon tarjima maktablarida o‘rganilganlik darajasini belgilash;

tarjimashunoslikda milliy va tarixiy koloritni ifodalashda realiyaga xos birliklarining o‘rni, ahamiyati va ifodalanish usullarini aniqlash;

tarixiy asar tarjimasida tarixiy koloritni yuzaga chiqarishda xonlikdagi rutba, amallarni ifodalovchi, maishiy leksikaga oid, mifologik, diniy va tarixiy realiyalarning tarjimada ifodalanish usullarini tahlil qilish;

asliyat badiiyati ifodasi sifatida sajnalar va san’atining tarjimada qayta yaratish mezonlarini ishlab chiqish;

tarixiylikni ifodalashda uslubiy figura va troplarning tarjimada saqlanish masalalariga oid nazariy xulosalar chiqarish.

Б.117.; Хабибуллаева Ф.А. Миллий ўзига хосликни қайта яратиш таржима адекватлиги мезони сифатида (“Ўткан кунлар” романининг рус тилида таржималари мисолида): Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент – 2020. – Б.16.; Садиқов З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси. Монография. – Наманган: Водий Медиа, 2021. – Б.46.; Умарова М.А. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.16.

Tadqiqotning obykti sifatida “Firdavs ul-iqbol” asari va uning Y.Bregel tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasini olingan.

Tadqiqotning predmetini Xiva xonligi solnomasining ingliz tiliga tarjimasidagi tarixiy koloritni ifodalovchi realiyalar va davr ruhini qayta yaratishda qo‘llangan uslubiy figura hamda troplarning tarjima xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, chog‘ish-tirma, lingvomadaniy, kognitiv va stilistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm tarixnavislik an‘anasi taraqqiyotida “Firdavs ul-iqbol” asarining o‘rni va Y.Bregelning tarixiy asar tarjimasini jarayonidagi ilmiy izlanishlari, so‘z tanlash hamda tarjima usullarini qo‘llashdagi mahorati yoritilgan;

madaniyatga xos birliklar – realiyalarning tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi turlicha istiloh ham izohlari tahlil qilinib, bu tarjima birligining asosiy belgilari hamda tarjimada realiyalarning tarixiy kolorit ifodasi uchun zaruriy birlik sanalishi dalillangan;

tarixiy asar tarjimasida amal-martaba ifodalovchi, maishiy, mifologik, tarixiy va diniy realiyalar transliteratsiya, analogiya, kalkalash, asar tarjima nashri ilovasida izohlash, ba‘zan aralash usullar orqali berilganligi hamda milliy-madaniy birliklarining to‘g‘ri o‘girilishi tarjimaning asliyatga adekvatligini ta‘minlovchi asosiy vositalardan ekanligi asoslangan;

tarixiy-adabiy asardagi tarixiy kolorit ifodalovchi saj‘ san‘ati, uslubiy figura va troplar – asliyat badiiyatining tarjimada saqlanishi alohida ahamiyatga egaligi hamda asarning muvaffaqiyatli tarjimasini mutarjimning turkiy xalqlar madaniyati, tarixi bilan bir qatorda, mumtoz adabiyotimiz qonun-qoidalarini ham chuqur o‘zlashtirganligi bilan bog‘liqligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarixiy-adabiy asar tarjimasida tarixiy koloritni ifodalovchi realiyalar va badiiy-uslubiy vositalarning tarjima usullari hamda tarjimon mahorati xususidagi xulosa va takliflar, shuningdek, tadqiqotda foydalanilgan tarjimashunoslik materiallari sohani yangi ilmiy-nazariy tushunchalar bilan boyitishi, tarixiy-badiiy asarlar tarjimasini va ularda qo‘llangan tarjima usullarini tahlil qilishdagi ilmiy-amaliy qarashlarni rivojlantirish hamda ushbu sohada tadqiqotlar olib borishda manba bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

realiyaning lingvistik maktablarda o‘rganilganlik darajasi, tarjimada tarixiy koloritning ifodalanishi, mansab-rutbalarni ifodalovchi, maishiy leksikaga oid, mifologik, diniy va tarixiy realiyalarning tarjimada qayta yaratilishi, tarjimada asliyatga xos saj‘, uslubiy figura hamda troplarning saqlanishiga oid ma‘lumotlar tarjima nazariyasi, yozma tarjima, badiiy tarjima, stilistika va matn tahriri yo‘nalishidagi mavjud darslik, o‘quv qo‘llanmalarni boyitishi; tarixiy realiyalarning ikki tilli lug‘atini yaratish talablarini o‘rganuvchi magistrant, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tashi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga

muvofiqligi, muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan natija va xulosalarning qat'iyiligi, qo'llangan yondashuv usullari, tahlilga tortilgan materiallarning asosiligi, zamonaviy paradigmalarda qo'llanilgan usullardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati solnoma tarjimasida tarixiy koloritni ifodalovchi birliklar va badiiy tasvir vositalarining tarjimadagi ifodasiga doir nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi; asliyat va tarjimaning muvofiqligini ta'minlovchi omillar, asliyatdagi tarixiy realiyalar va uslubiy vositalarni tarjima qilish usullari hamda bunda mutarjimning so'z tanlash mahorati, tarjima adekvatligi talablarini aniqlashda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarixiy asar tarjimasida qo'llanadigan adekvat tarjima usullarini amaliy materiallar bilan boyitishi; tarjima amaliyotida tarixiy davr ruhini ifodalovchi realiyalarni eng muvofiq usullarda berish va oliy o'quv yurti xorijiy filologiya yo'nalishi o'quv rejasidagi tarjima nazariyasi va amaliyoti, badiiy tarjima, tarjima metodologiyasi, yozma tarjima fanlaridan ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, maxsus kurslarni tashkil qilish hamda shu fanlardan yaratilgan o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishdagi samaradorligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xiva xonligi solnomasi tarjimasida tarixiy koloritni qayta yaratuvchi birliklarning ingliz tilida berilishi yuzasidan olingan natijalar asosida:

tarixiylikni belgilovchi unsurlardan biri sifatida tarixiy-arxaik unvon, kasb-korga tegishli so'zlar va realiyalarni tarjima tiliga to'g'ri o'girish tarjimaning asliyatga muqobilligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligini asoslovchi natijalardan O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 15-apreldagi 148/1-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotning asliyat tarixi madaniyatining tarjima tilida qayta yaratilishining o'ziga xosliklari yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalari loyiha doirasida amalga oshirilgan tarjimalarga nazariy asos bo'lib xizmat qilgan;

tadqiqotning "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asari tarjimasiga oid nazariy xulosalari va amaliy tavsiyalaridan Xorazm Ma'mun akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi "Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 238-son qarori 3-bandiga muvofiq A-FA-2019-9 shifrlı "Qadimiy yozma noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan Ogahiy "Asarlar" silsilasining 6-, 8-, 9-jildlarini nashrga tayyorlash va chop etishda, loyiha saytining ingliz tilidagi

talqinini yaratishda foydalanilgan (Xorazm Ma'mun akademiyasining 2024-yil 1-apreldagi 53/2-24-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur jildlardagi ayrim so'zlarning to'g'ri o'qilishi va talqin qilinishi ta'minlangan hamda ularni ingliz tiliga adekvat tarjima qilish imkoni yaratilgan;

xonlik tarixiga oid solnoma tarjimasida maishiy leksikaga oid realiyalarni tarjimada qayta yaratish mezonlariga doir ilmiy-amaliy tavsiyalardan Xiva "Ichan-qal'a" davlat muzey qo'riqxonasida saqlanayotgan tarixiy va tarjima asarlardagi nazmiy asarlarning pasportini yozish, me'moriy obidalardagi yozuvlarning ma'nosini sharhlash va sayyohlarga ingliz tilida bayon qilishda hamda jamoaning gid-hamrohlari faoliyatini tashkil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Xiva "Ichan-qal'a" davlat muzey qo'riqxonasining 2024-yil 30-martdagi 02-02/148-son ma'lumotnomasi). Natijada hamroh gid-tarjimonlar uchun muzeyga tashrif buyurgan xorijlik, mahalliy sayyoh va yoshlarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda, ekskursiya matnlarini tayyorlashda ancha yengillik hamda qulayliklar yaratishga erishilgan;

tarixiy asar tarjimasida tarixiy koloritni qayta yaratishda tarjimon mahorati masalalariga doir natija va xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga qarashli Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining "Siz nima deysiz?" teledasturida, "Najot – bilimda" radio eshittirishda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-apreldagi 346-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuv va radioeshittirishlar yangi materiallar, ilmiy asoslangan dalillar bilan boyitilgan hamda xalqimiz madaniy yodgorligi sanalgan tarixiy solnomalarimizni boshqa xalq vakillari tomonidan mutolaa qilinishini keng ommaga namoyish qilinishiga imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy maqola chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi,

aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarixnavislik va tarjimada o'ziga xoslik”** deb nomlanuvchi birinchi bobi uch fasldan iborat. Birinchi fasl **“Xiva xonligi solnomalari va Y.Bregel tarjimasidagi “Firdavs ul-iqbol”** deb nomlangan bo'lib, unda Xorazm tarixnavislik an'anasi taraqqiyoti, Xorazm tarixiy solnomalarining o'rganilishida Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari va Y.Bregelning tarixiy asar tarjimasida jarayonidagi ilmiy izlanishlari hamda asar tarjimasida borasidagi fikr-mulohazalari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, Xorazmda 1512–1920-yillarda hukmronlik qilgan Xiva xonligida ajoyib tarixnavislik an'anasi shakllangan, afsuski, solnomachilikning ilk davriga oid asarlar bugungi kungacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Biroq XVII asrning boshidan Qong'irotlar sulolasi hokimiyatga kelgach, mamlakatda jamoat tartibi ta'minlanadi va xalq tinch-totuvlikka erishadi. Bu holat boshqa ko'plab sohalarda bo'lgani kabi tarixshunoslikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi va uning rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bu davrda Buxoro xonligida deyarli barcha asarlar fors tilida yozilgan bo'lsa, Xiva xonligida adabiy til – chig'atoy tilida yozilgan⁷.

Xiva xonligida yozilgan birinchi tarixiy asar – ikki nusxasi fanga ma'lum bo'lgan “O'tamish Xoji ibn mavlono Muhammad Do'sti sulton” asari bo'lib, 1552-yilda O'tamish Xoji tomonidan yozib tugallangan. Bu asarni “Oltin O'rda tarixi” deb ham ta'riflash mumkin. Xiva xonligida tarixshunoslik ilmi tom ma'noda Abulg'ozzi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk”lari bilan boshlangan. Xiva xonligida Abulg'ozidan keyingi tarixchi Mavlono Sayyid Muhammad oxundir⁸. Bu muarrif Sherg'ozixon (1714-1728) davrida “Gulshan-i davlat” nomli betakror asar yozgan. Chig'atoy tilida yozilgan bu asar Sherg'ozixonning nasl-nasabi, ajdodlari va davrini bayon etuvchi tarixiy asar bo'lib, uning yo'qolib ketganligi gumon qilinadi⁹.

Keyingi yirik va salmoqli tarixiy-adabiy solnoma Shermuhammad Munis tomonidan Eltuzarxon buyrug'i bilan 1805-yilda yozila boshlangan va Muhammadrizo Ogahiy tomonidan 1842-yilda yozib tugallangan “Firdavs ul-iqbol” asaridir. Asarning ingliz tiliga tarjimasida Yuriy Bregel tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tarixiy asarning ilmiy-tanqidiy matni 1972–1978-yillarda tayyorlangan va o'n yildan keyin – 1988-yilda nashr qilingan. Tarjima matni uchun asarning ikkita qo'lyozma varianti asos bo'lgan¹⁰. Bu ilmiy-tanqidiy matni nashri noyob ma'lumotlarga to'la, hali fanimizda deyarli o'rganilmagan ingliz tilidagi so'zboshisi berilgan. Hajman noan'anaviy bo'lgan so'zboshi to'rt qismdan iborat bo'lib: *birinchi qismi* asar mualliflari ijodiy faoliyatini, *ikkinchi qismi* “Firdavs ul-iqbol” asarining mohiyati, *uchinchisi* asarning o'rganilishi va

⁷ Eckmann J. Die tschagataische Literatur. // Philologiae Turcaicae Fundamenta, vol.II. – Wiesbaden, 1964. – Pp.385-387.

⁸ Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ Transl. from Chaghatay and annotated by Yuri Bregel. – Leiden, 1999. – P.2.

⁹ Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. Ko'rsatilgan manba. – P.166.

¹⁰ Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb. Ko'rsatilgan manba. – P.1vii.

to'rtinchisi asarning qo'lyozma nusxalari xususiyatlarini ochishga qaratilgan¹¹. Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, asarning 1999-yilgi nashridagi so'zboshisi esa besh qismdan iborat bo'lib, so'zboshining birinchi qismida Xorazm vohasi va yakuniy qismida asarning qo'lyozma nusxalari hamda nashrlari bilan birga, tarjimaga oid muammolar va ularni bartaraf qilishga oid jarayonlar ham batafsil yoritib o'tilgan.

Asarning tili arabiy va forsiy lafzlarga boy bo'lgani va o'ziga xos sharqona usulda yaratilgani bois ingliz tiliga tarjimasi oson kechmagan, albatta. Y.Bregel ko'plab olimlar bilan bamaslahat ish olib borgan. Jumladan, tarjimon O.Akimushkin (Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti), professor R.Dankoff (Chikago universiteti), doktor I.V.Yerofeyeva (Tarix va etnografiya instituti, Olmeta), professor B.Litvinskiy (Sharqshunoslik instituti, Moskva), A.Naymark (Indiana universiteti), doktor Benno van Dalen (Geografiya instituti, Moskva), professor D.Devis (Indiana universiteti) kabi sharqshunoslar unga juda katta yordam berganini mamnuniyat bilan eslaydi¹².

Y.Bregelning keng qamrovli va ta'sirchan chuqur izohlari nashr etilgan manbalarni to'liq o'rganish asosida mintaqaning tarixiy geografiyasi, etnografiyasi va shaxslari haqida batafsil ma'lumot beruvchi manba sanaladi¹³. Albatta, annotatsiya, geografik nomlar ko'rsatkichi va xaritalar Xorazm tarixiy geografiyasiga qo'shilgan katta hissadir. "XVIII-XIX asrlarda Xorazm va O'rta Osiyo tarixi bo'yicha tadqiqot olib boradiganlar, albatta, "Firdavs ul-iqbol" asarining ushbu inglizcha tarjimasini ko'rishlari kerak"¹⁴. Y.Bregelning chuqur bilimi va izlanishlari nafaqat Markaziy Osiyo va islom olami, shu bilan birga, Xorazm tarixini butun dunyoga namoyon etishda muhim yutuq sanaladi, uning zehni va tarjima mahorati jahon adabiyoti xazinasini boyitishda vosita bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli "***Tarjimada o'ziga xoslikni ifoda qiluvchi birliklarning jahon tarjima maktablari o'rganilishi***" deb nomlanib, unda tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolari, tarjimada o'ziga xosliklarni ifoda qiluvchi realiya birligining jahonning turli maktablari tomonidan o'rganilganlik darajasi va nomlanish masalalari, realiyalarning tipologik tasnifi yoritilgan. Jumladan, muayyan xalqqa xos madaniy birliklarni ikkinchi bir xalqqa yetkazishning asosiy usuli tarjimadir. Bu jarayon begona va olis madaniy voqealarni qayta gavdalantirish imkoniyatini yaratadi. Ammo tarjima adekvatligining qay darajada amalga oshirilishi til bilan bevosita bog'liq lisoniy (lingvistik) muammolar va xalqlarning urf-odatlarini va an'analari asosida yuzaga keluvchi g'ayrilisoniy (ekstralingvistik) muammolarning hal etilish darajasi bilan bog'liq hisoblanadi.

¹¹ Xalliyeva G., Adambayeva N. Ogahiy ijodining Amerikada o'rganilishi. "Muhammad Rizo Ogahiyning O'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B.181.

¹² Xalliyeva G., Adambayeva N. Ko'rsatilgan manba. – B.181.

¹³ Muhammed B.Ç. Firdevsü'l-İkbâl ve Hive Hanlığı Tarihi Açısından Değeri. – Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Yönetim Kurulunun 09.03.2017 tarihli ve 736/12 sayılı kararı gereği e-kitap olarak yayımlanmıştır. – Ankara, 2022. – S.50.

¹⁴ <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/1546632>

Nazariy tadqiqotlarda realiyalarning tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi ta'riflari, ularning sohada tutgan o'rni, nomlanishi va tarjima jihatlari dunyoning turli tarjima maktablari vakillari tomonidan tadqiq qilingan. *Realiya* lotincha so'z bo'lib, "buyumga, predmetga oid" degan ma'noni anglatadi. Realiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, etnopsixolingvistika kabi ilmiy yo'nalishlar doirasida tadqiq qilinadigan birlikdir. Jahon tarjimashunosligida P.Nyumark, B.Nedergaard-Larsen, H.Vermeer, Ch.Nord, D.Katan, J.Pedersen, M.Beyker, J.F.Ayksela, M.Loponen, R.Leppihalm, C.A.Shaffer kabi olimlar¹⁵ tadqiqotlarida asliyat milliy o'ziga xosligini ifodalovchi birliklar madaniyat konsepti bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Realiyalar manba tilining ekspressiv vositasi sifatida nasriy matnning badiiy-estetik qiymatini oshiradi va asarning uslubiy individualligini, milliy o'ziga xosligini aks ettiradi. Bunday so'zlar "tarjima qilinmaydigan so'zlar" sifatida izohlanib, ularga nisbatan *cultural terms, cultural words; culture-bound problems/elements, cultureme, culture-bound references; culture-specific items, lacunaes, ekzotizmlar \ \ ekzotik leksika, alienizmlar, lokalizmlar, etnografizmlar, probellar, varvarizmlar, lingvokulturemalar, ksenizmlar, muqobilsiz leksika, xos so'zlar* kabi istilohlar qo'llangan.

Rus tarjimashunosligiga *realiya* tushunchasi A.Fedorov tomonidan kiritilgan va "madaniy xususiyatli narsa-buyumlar va hodisalar" tarzida tushunilgan. Bu atama bilan birga *fon shaklidagi ma'lumot* (фондовая информация) termini ham qo'llangan. Rus tarjimashunosligida N.Vladimirova, A.V.Fedorov, I.A.Kashkin L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, A.D.Shveytser, S.Vlaxov, S.Florin, Y.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, Z.G.Proshina kabi olimlar¹⁶ realiyalarni asliyatdagi milliy va davriy xususiyatga ega birliklar sifatida o'rganish lozimligini ta'kidlashadi. Jumladan, E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov *realiyalarga* "mazmun jihatini hech qanday xorijiy leksik tushunchalar bilan qiyoslab bo'lmaydigan va ularni boshqa tilda mosi bo'lmasdan, bir so'z bilan tarjimada ifodalab bo'lmaydi, bunday birliklarni faqat olinma so'zlar yoki tavsiflash orqali ifodalash mumkin" deb izoh berganlar¹⁷.

¹⁵ Larson M. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. – Lanham and New York: University Press of America, 1984. – 600 p.; Newmark P. A Text Book of Translation. – New York and London: Prentice Hall, 1988. – 200 p.; Baker M. In other words. – London: Routledge, 1992. – 317 p.; Gambier Y. Doubts and Directions in Translation Studies. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins, 2007. – 362 p.; Schäffner C. A roof is an umbrella: metaphor, culture and translation. Identity and Difference – Translation Shaping Culture. – Bern: Peter Lang AG, 2005. – P.49.

¹⁶ Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Ташкент, 1957. – С.66-67.; Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Высшая школа, 1968.; Кашкин И.А. О методе и школе художественного перевода. – Москва: Знамя, 1954.; Кашкин И.А. В борьбе за реалистический перевод. Для читателя-современника. – Москва: Советский писатель, 1977.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва: Международные отношения, 1975.; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие. – Москва, 2004.; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва: Международные отношения, 1974.; Швейцер А.Д. Теория перевода Статус, проблемы, аспекты. – Москва: Наука, 1988.; Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Международные отношения, 1980.; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – Москва: Русский язык, 1987. – С.42.; Прошина З.Г. Теория перевода. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008. – С.86.

¹⁷ Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – Москва: Русский язык, 1987. – С.42.

O‘zbek tarjimashunosi G‘.Salomovning ishlarida *milliy koloritni* ifodalovchi birliklarga urf-odatlar, maishiy o‘ziga xoslik, xalqning tabiiy xo‘jalik xususiyatlari; milliy psixologiyasi; musiqiy asboblari; dialektizmlar, matallar, jargonlar; milliy kiyimlari; diniy odatlar; milliy bayramlari; diniy ibodat qilish joylari; millatning ruhiy jihatlarini; shaxsiy psixikasi; xalq yashayotgan hududning tabiiy o‘ziga xosligi; insonlarning turmush tarzi; shaxsning o‘zini tuta bilishi va axloqiy jihatlarini; odobi¹⁸ kabi xususiyatlar kiritilib, *asliyat milliy o‘ziga xosligi* qatorida sanab o‘tilgan. Shuningdek, tarjimada asliyat o‘ziga xosligi va tarixiylikning ifodasi G.G‘afurova, R.Fayzullayeva, S.E.Kamilova, M.Javbo‘riyev, X.Xamrayev, B.Yarkinova, Sh.Isakova, Sh.Ibrohimova, X.Hamidov, B.Buranova, D.No‘monov, Z.Sadiqov, F.Xabibullayeva, M.Umarovalar¹⁹ ning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Bobning uchinchi fasli “*Tarjimada tarixiy realiyalarni ifodalash usullari va murakkabliklari*” deb nomlangan bo‘lib, unda tarjima birligi sifatida realiyalar – arxaizm va istorizmlar orqali tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatiga ega ekanligi va tarjima usullari haqida ma’lumot berilgan.

Realiyalar milliy va tarixiy “kolorit” tushunchasi bilan uzviylikda badiiy asarda zamon va makon koloritini yaratadi. Tarix mavzusidagi asarlarda tarixiy kolorit zamonaviy tilimizda sinonimlarga ega bo‘lmagan yagona birliklar – istorizm va o‘z vaqtida tegishli so‘zlar bilan ifodalangan jamiyat taraqqiyoti jarayonida muloqotdan chiqib, sinonimlar yordamida yangicha atala boshlagan arxaizm orqali tarixiy realiyalarni shakllantiradi. “Firdavs ul-iqbol” asarida *ayog, raiyat, ulus, cherik, qal’a, kent* kabi arxaik-realiyalar ham; *shig‘avul, parvonachi, dodxoh, mahramboshi, churaog‘asi, girovka, meshkob, bo‘shqob, ig‘roq* kabi tarixiy realiyalar ham ko‘plab uchraydi. Bunday tarixiy koloritni ifodalovchi

¹⁸ Саломов Г. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 1983. – Б.49.

¹⁹ Гафурова Г. К проблеме взаимосвязей узбекской и русской литератур (Вопросы художественного перевода с узбекского на русский язык): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 18 с.; Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 217 б.; Камиллова С.Э. Особенности воссоздания национальной картины мира при переводе современной узбекской прозы на русский язык. // Вестник Московского государственного лингвистического университета. – № 695. – 2014.; Жавбўриев М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш: Филол. фан номз. дисс. автореф. – Ташкент, 1991. – 20 б.; Хамраев Х. Воссоздание национального колорита и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 22 с.; Яркинова Б.Б. Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши (Қирғиз адиби Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2002. – Б.12.; Исоқова Ш.И. Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004.; Иброҳимова Ш. О.Ёкубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 190 б.; Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2021. – 235 б.; Ходжаева Н. Бадий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 124 б.; Буранова Б. Бадий таржимада тарихий-миллий колоритни сақлаш принциплари (“Юлдузли тунлар” романининг туркман тилидаги намунаси асосида): Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2021. – 124 б.; Нўмонов Д. Таржимада давр руҳини ифодалаш // Таржима муаммолари: К. 2. – Тошкент: Самарқанд, 1991. – Б.117.; Хабибуллаева Ф.А. Миллий ўзига хосликни қайта яратиш таржимада адекватлиги мезони сифатида (“Ўткан кунлар” романининг рус тилида таржималари мисолида): Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б.16.; Садиков З. Қадимги туркий реалйлар таржимаси. Монография. – Наманган: Водий Медиа, 2021. – Б.46.; Умарова М.А. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.16.

realiyalar “muayyan lug‘at guruhi sifatida emas”, balki “u yoki bu davrga taalluqli tarixiylikka ega leksika” sifatida ta’riflanadi²⁰. Jumladan, tarixiy leksikaning tarjimashunoslik sohasidagi tadqiqotlari borasida E.Qilisheva²¹, N.O‘rmonova²², Sh.Isakova²³, D.Xoshimova²⁴lar o‘z taklif va xulosalarini bildirgan.

Biror tildagi tarixiy realiyalar mutarjimga tarjima jarayonida (ayniqsa, qarindosh bo‘lmagan tilga tarjima qilinayotganda) ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunga sabab tarjimon asliyatdagi bunday realiyaning ifodasining emas, balki uning mazmuni – tarixiy va milliy koloritini ham kitobxonga yetkaza olishi kerakligidir. Afsuski, barcha tarixiy realiyalar ham izohli lug‘atlarda yoritilmagan. Bunday noqisliklar tarjimonning tarixiy-arxaik madaniy birlikning ma’nosini aniq anglamasdan tarjima jarayonida xato qilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, “Firdavs ul-iqbol” asarining tarjimasida asliyatdagi *birodari ayniysi* birikmasi tarjima matniga *uterine brother* shaklida o‘g‘irilgan. Holbuki, bu birikma “ota bir, ona boshqa uka” mazmuni anglatadi. Tarjima matnidagi *uterine brother* asliyatdagi mazmunning aksini bayon etgan.

Realiyalar tarjimasi borasida ilmiy izlanish olib borgan olimlar mohiyatan bir xil, ammo turlicha nomlanuvchi tarjima usullarini taklif qilishgan. Ko‘zlagan maqsadimizdan kelib chiqqan holda, o‘zbek tarjimashunosligida realiyalarning tarjima usullari borasida E.Ochilovning takliflari o‘rinli deb hisobladik. Xos so‘zlar tarjimasida, asosan, quyidagi uch usul qo‘llaniladi: 1) transliteratsiya, 2) analogiya, 3) yangi so‘z va so‘z birikmasi yasash²⁵.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Xiva xonligi solnomasidagi tarixiy realiyalarning ingliz tilida berilishi**” tarzida nomlangan bo‘lib, o‘z ichida uch faslga ajratilgan. Birinchi fasl – “**Mansab va rutbalarni ifodalovchi realiyalarning tarjimada berilishi**”da asliyatdagi mutlaq hukmdor (monarx) tushunchasini ifodalovchi, “hukmdor vorisi” ma’nosini anglatuvchi, davlat boshqaruvining turli lavozimlarini anglatuvchi mansab va unvon nomlari hamda saroydagi vazifalar va amallarga oid tarixiy realiyalar tarjimalari, ularning Y.Bregel tarjimada qo‘llagan turli usullari yordamida qayta jilolanishi tahlil qilingan.

“Firdavs ul-iqbol”dagi tarixiylikni belgilovchi tarixiy-arxaik realiyalar (milliy xos so‘zlar)ni mutarjim asliyatda qanday berilgan bo‘lsa, ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida o‘z holicha saqlashga va asliyatning tarixiy koloritini butunligicha yoritishga harakat qilgan. Buning uchun Y.Bregel Xiva xonligi tarixini, xalqning ijtimoiy hayotini shunchaki tasvirlab qolmasdan, tarixiy xarakterga oid har bir so‘z ustida ancha izlangan va aniq xulosalarga tayangan

²⁰ Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. – Москва: Высш. школа, 1986. – С.128.

²¹ Қиличев Э. С. Айний прозасида архаизм ва историзмлар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1968.

²² Ўрмонова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (Ўзбек классик адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008.

²³ Исоқова Ш. И. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттилиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004.

²⁴ Хошимова Д. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2018.

²⁵ Ochilov E., Xodjajeva N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – B.84.

holda so‘z tanloviga qo‘l urgan. Y.Bregel “Firdavs ul-iqbol” asarini tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, tasviriy tarjima, yaqinlashtirilgan tarjima va transformatsion tarjima kabi tarjima usullaridan o‘rinli foydalangan.

Asliyatdagi amal-martaba va kasb-kor leksemalarining tarjimasini bir necha guruhlariga ajratgan holda tahlilga tortdik:

1. “Mutlaq hukmdor (monarx)” tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: *xon* \\
khan, xoqon (qag‘an) \\
khaqan, sultan \\
sultan, amir \\
amir, emer, emeer, emir; shahanshah \\
monarch kabilar. Asliyat va tarjima tilidagi bunday so‘zlarning ayrimlari ikki tilda ham bir xil ma‘nolarni anglatgan (*xon, sulton*), ayrimlari esa anglatgan ma‘no qirralari bilan qisman farqlanadi, albatta, bu ham tabiiy hol. Masalan, asliyatdagi *voliy* leksemasi ikkita tushuncha – *governor* va *ruler* orqali ifodalangan: “Marv *voliyi*” (FI, 220) \\
“*the governor (vali) of Merv*” (FI, 213); “Buxoro *voliyi* Mir Haydarxon” (FI, 291) \\
“Mir Haydar Khan, the *ruler(vali) of Bukhara*” (FI, 283).

2. “Hukmdor vorisi” ma‘nosini anglatuvchi so‘zlar: *shahzoda (to‘ra)* \\
prince, valiahd \\
heir kabi. Masalan, “Bu jihatdan *to‘ralar* mushaddad va g‘azabnok bo‘lub” (FI, 79) \\
Therefore the *princes (to‘relar)* became embittered and enraged and fighting daily...” (FI, 29); “Menglish Bahodir otasi *valiahd* qilib erdi” (FI, 120) \\
“Menglish Bahadur became *heir* to his father” (FI, 91).

3. Davlat boshqaruvining turli lavozimlarini anglatuvchi mansab va unvon nomlari: *vaziri a‘zam* \\
grand vizier, ulug‘ otoliq (ulug‘ inoq) \\
the great (ulugh) ataliq, inoq \\
inoq, noyib \\
deputy kabilar: “... Tabrizda *noyib* qilib” (FI, 76) \\
“... his *deputy* in Tabriz” (FI, 25).

4. Saroydagi vazifalar va amallarga oid so‘zlar: *to‘shakchi* \\
the servant of the bedchamber, jorubkash \\
sweeper, jilovdor \\
groom kabilar. Masalan, “xodim va *jorubkash* va musofirlarg‘a osh va taom berib” (FI, 351) \\
“provide food for the servants (*khadim*), *sweepers (jarub-kash)*, and the travellers coming there” (FI, 356) misoldagi *jorubkash* arxaik so‘zi “supuruvchi, xizmatkor”, “aziz-avliyolar maqbara-madfanida xizmat qiluvchi, uning ozodaligi, shikast-rextiga qarovchi xodim yoki bu ishlarga moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi ixlosmand kishi” ma‘nolarini kasb etadi²⁶. *Sweeper* realiyasi ingliz tilining izohli lug‘atida ham “supuruvchi va o‘rin-ko‘rpani saranjomlovchi” ma‘nosida izohlangan²⁷.

Tarixiy asarlar tarjimasi juda murakkab jarayon bo‘lib, aksariyat hollarda tarjima tarjimonning mahorati va salohiyatiga bog‘liq holda amalga oshadi. Asliyatdagi tarixiy-arxaik so‘zlarni tarjimasidan oldin tarjimon ularning asl mazmunini anglab, to‘g‘ri tushunib yetishi va albatta, to‘g‘ri muqobil tanlashi yoki transliteratsiya qilishi lozim bo‘ladi (bunday vaziyatlarda tarjimashunoslikda yozilmagan qoidalarga tayangan holda ish olib boriladi).

Bobning ikkinchi “*Maishiy leksikaga oid realiyalarning tarjimadagi ifodasi*” deb nomlangan faslida solnomada qo‘llanilgan kundalik hayot tarzini ifodalovchi maishiy leksikaga oid so‘zlar 1) oziq-ovqat, ichimliklar; 2) turar-joy

²⁶ Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.183.

²⁷ The Oxford English Dictionary, Volume 17. – Oxford: Clarendon Press, 1989. – P.381.

turi, aholi punktlari, turar-joy binolari va ularning rekvizitlari; 3) uy-ro‘zg‘or buyumlari; 4) kiyim-kechak va zargarlik buyumlari kabi guruhlarga ajratilib, asliyat va tarjimada berilishidagi o‘ziga xosliklar, mutarjimning so‘z tanlash mahorati izohlangan.

O‘zbek milliy oshxonasi realiyalari boshqa tillar va madaniyatlarda tegishli referentlar hamda ekvivalentlarga deyarli ega emas. Bu guruhga oid *xurmo nabidi* *date wine, holva* *halva, shahd-u shakar* *honey and sugar* kabi birliklarning tarjimada qanday usullarda berilishi dalillandi. Jumladan, “To‘la *shahd-u shakar, halvoi* qandin” (FI, 280) *“Full of honey and sugar, and sweet halva”* (FI, 274).

“Древнетюркский словарь”da “حَلَاوَةٌ – сладост, халва: qarın toqsa arpa ja halva bir – если желудок насытится, всё равно что ячмен или халва”²⁸. Holva – turkiy xalqlarga xos bo‘lgan oziq-ovqat, shirinlik realiyasi. Shu sabab uning tarjimasida transkripsiya talab qilinadi²⁹. Ma‘lumki, *halvo*, ya‘ni *holva* realiyasi arab tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib, quyidagicha izohlanadi: “holva [a.- حَلَاوَةٌ – shirinlik; qandolat mahsuloti. Un, shakar va yog‘dan, ba‘zan kunjut, mag‘iz qo‘shib tayyorlangan shirinlik, qandolat”³⁰. Y.Bregel bu realiyani transkripsiya bilan bergan. Realialarning bunday usulda o‘g‘irilishida, ya‘ni “translitteratsiyani izohsiz berish ko‘p hollarda boshqa millat kitobxonining ongida o‘sha so‘zga nisbatan bir kemtik tushuncha hosil bo‘lishiga olib keladi”³¹.

Turar-joy binolari va ularning qismlarini nomlovchi *ayvon* *ayvan, karvonsaroy* *caravanseray, savdoxona* *trading place, xonaqoh* kabi tarixiy realialarning tarjimasida transkripsiya yoki translitteratsiya va tarjima nashri ilovasida izohlash usulidan ko‘proq foydalangan: “Shimoli bo‘lib tarh *ayvon* anga” (FI, 211) *“On the northern side [so grand] an ayvan*⁶⁶³ was built” (FI, 202). Ushbu misoldagi *ayvon* realiyasi asliyatdan tarjima matniga transkripsiya usuli orqali o‘g‘irilgan bo‘lib, asar tarjima nashrida “*portico, veranda*” shaklida 663-sarlavha osti izohi bilan sharq me‘morchiligi bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan O.Grabarning *ayvon* haqida bergan ma‘lumot³²iga qarash kerakligi aytib o‘tilgan. *Ayvon* leksik birligining, internet sahifalaridagi ma‘lumotlarda, bir necha vazifadosh analoglari mavjud: ايوان (eyvan) (*plural* ايوانها (eyvân-hâ)) 1. (*archaic*) *palace* 2. *porch* 3. *portico* 4. *iwana* 5. *balcony* 6. *veranda*³³. Asliyatdagi *ayvon* leksik birligining tarjimasida mutarjim o‘z izlanishlari natijasiga tayangan holda translitteratsiya va nashr ilovasida izohlash usulidan to‘g‘ri foydalangan.

Solnomadagi uy-ro‘zg‘or buyumlarini bildiruvchi realialarning ayrimlari hozirda kundalik iste‘moldan chiqib ketgan va faqat badiiy adabiyot hamda she‘riyatda uchraydi (*jom, ayoq, xum, la‘li, meshkob* va boshqalar), ayrimlari (*tandir, tovoq, sarxum*) hanuzgacha muloqotda qo‘llaniladi. Bo‘limda asliyat va tarjimadagi *jom* *cup (chalice), ayoq* *bowl, tanur* *oven, xum* *jar* kabi misollar tahlilga tortilgan. Masalan, “... oltun *ayoqlar* bila sharobi la‘limazob

²⁸ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С.676.

²⁹ Садиқов З. Қадимги туркий реалаялар таржимаси. Монография. – Наманган: Водий Медиа, 2021. – Б.46.

³⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Holva>

³¹ Умарова М.А. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши: Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.16.

³² <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/05786967.2021.1960883>

³³ <https://en.wiktionary.org/wiki/%D8%A7%DB%8C%D9%88%D8%A7%D9%86>

ichar erdi” (FI, 107) \\\ “... drinking red wine from golden *bowls* ” (FI, 71). Misoldagi eski o‘zbek tilidagi *ayoq* realiyasi “kosa, piyola, qadah”³⁴ ma’nolarini anglatgan. Bu realiya tarjimasida analog usulidan foydalanilgan bo‘lib, vazifasi nuqtayi nazaridan ham to‘liq mos kelgan hamda *bowl* leksemasi ingliz tilida o‘zbek tilidagi *ayoq* so‘zi anglatgan ma’noni ifodalab, tarixiy jihatdan aynan asliyatdagi realiyani ifodalashda adekvat tarjimaga erishishga xizmat qilgan.

Xorazm vohasi o‘zbeklarining an’anaviy liboslari tarixi va ular bilan bog‘liq urf-odat, an’analarni etnohududiy xususiyatlari va bu nomlarning lingvistik o‘ziga xosliklari monografik planda tadqiq qilingan³⁵. “Firdavs ul-iqbol”dagi *xilo* \\\ *robe, sarupo* \\\ *outfit (robe), xil’ati garonbaho* \\\ *precious robe of honor (robe), jig’a* \\\ *aigrette, chakmon* \\\ *woolen robe, po’ta* \\\ *futa* kabi kiyim-kechak va zargarlik buyumlariga oid realiyalarning tarjimada berilishida ham yutuqlar hamda ba’zi noqisliklar kuzatiladi.

Tarixiy davr ruhini qayta yaratish va voqea-hodisalarning mohiyatini tarjima tili vakillariga aslicha yetkazish maqsadida maishiy leksikaga oid realiyalarni tarjima qilishda Y.Bregel kompleks usullardan ham samarali foydalangan:

1. Maishiy detallar tarjimasida transliteratsiya usuli bilan sahifa ostida yoki tarjima nashri ilovasida batafsil izohlab o‘tilgan: *po’ta – futa, ayvon – ayvan*.

2. Realiyaning tarjima tilidagi vazifadosh analogini berish orqali tarjima qilgan: *dastor, amoma – turban, xilloi garonbaho – robes of honor, jom – cup*.

3. Realiyalar tarjimasida jarayonida analog, tasviriy usul va transliteratsiyaning birgalikda ifodalanishi: *sarupo – outfit (sarupa), chakmon – woolen robe (chekmen), jig’a – aigrette (jigha)*.

4. Realiyalar tarjimasida jarayonida tarjima matnidan tushirib qoldirilishi yoki ba’zan umumlashtiruvchi transformatsiyaga uchrashi holatiga *sarxum, qandalot va halvo va maojini qand* kabi birliklarni kiritish mumkin.

Demak, har qanday tarixiy matnlarning milliy-tarixiy koloritni qayta yaratish jarayonida kompleks yondashuvning afzal tomonlari ko‘p.

Bobning navbatdagi “**Mifologik, diniy va tarixiy realiyalarning tarjimada qayta yaratilishi**” faslida “Firdavs ul-iqbol”dagi turkiy xalqlar o‘g‘zaki ijodida uchraydigan *Rustam, Bahrom, Zol, Narimon, Jamshid, Iskandar Zulqarnayn* \\\ *Iskandar Zu’l-Qarnayn* (albatta, tarixiy *Iskandar* \\\ *Alexander* emas) kabi mifologik; *Iskandar* \\\ “*Alexander, Arastu* \\\ *Aristu, Aristitolis* \\\ *Aristutalis* kabi tarixiy realiyalar hamda mutlaq iloh, payg‘ambar, farishta, jannat, do‘zax tushunchalarini ifodalovchi diniy realiyalar – *qur’oniylar lafzlar* tahlil qilingan.

Ma’lumki, diniy realiyalar tarjima jarayonida tarjimonning zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi. “Firdavs ul-iqbol” asarining tarjima nashrida Qur’oni Karim oyatlari, arab tilidagi hadislar, diniy birikmalar, maqol va shunday lingvistik birliklar asar tarjimasida kursiv matn shaklida berilgan bo‘lib, Qur’onda keltirilgan oyatlar izohi A.J.Arberining ingliz tiliga qilgan tarjimasida asosida berilgan. Islom diniga oid matnlar tarjimasining beshta muhim jihati 1)

³⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Жилд I. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б.43.

³⁵ Нуруллаева Ш. Хоразм анъанавий кийимлари. – Тошкент: Янги нашр, 2013.; Норбоева Ш.Х. Хоразм шевалари кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. фалс. докт. ...дисс. – Тошкент, 2017. – Б.28.

diniy matnlar tarkibidagi soʻzlar badiiy va sheʼriy asarlar tarjimasida kabi ijodiy oʻgʻirishni talab qilmaydi; 2) diniy matnlarni oʻqish, yodlash, va yoddan aytishda yengillik tugʻdiradigan fonetik jihatlari bilan farqlanadi, tarjimon asliyatdagi bu jihatlarni tarjima tilida alliteratsiya, assonans, qofiya va ritm yordamida amalga oshirishiga toʻgʻri keladi; 3) diniy matnlardagi qadimiylik ifodasi boʻlgan arxaik soʻzlardan hozirgi kun kitobxonini bexabarligi tufayli tarjimon oʻz auditoriyasi tabiatini aniq bilishi va arxaik birliklarni meʼyorda ishlatishi lozim; 4) diniy matnlarda soʻz tanlovi rasmiylikka moyil boʻladi; 5) dinga xos soʻzlarni tarjima qilishning transferens, “funktional muqobil”ni tanlash, diniy matnlardagi faqat fikrni tarjima qilish usullari mavjud; bunda ham soʻz tanlovida tarjimondan ehtiyotkorlikni talab qiladi³⁶.

Asliyatdagi *Alloh* \ *God* (Tarjima matnida *Alloh* tushunchasi *God* soʻzidan tashqari *the Mighty Lord, a King of Omnipotent, the Most High God, the Lord of the Worlds, The Lord who Bestows Gifts, God Most High, the Lord* va *The Lord Protector and Helper* kabi epitelar bilan ham ifodalangan); *Bilsmillahi-rahmani-rahim* \ *In the name of God, the Merciful the Compassionate, qaddasallohu sirrahu-l-azizkim* \ *may God hallow his precious grave!* (asliyatda bu tarjimada kiritma shaklida ifodalangan), *xalifat az-zamon fi-l- ofoq* \ *Chiefs of Prophets, Muhammad Sallolohu Alayhi vasallam* \ *Muhammad, Odam alayhissalom* \ *Adam (peace be upon him), Nuh alayhissalom* \ *Nuh (peace be upon him), Iso nafasi* \ *Jesus breath; firdavs, behisht* \ *paradise, heaven; gardun, falak* \ *heaven* shaklida tarjima qilingan. “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirilgan oyatlar tarjimasida, ularning ekvivalentlik va adekvatlik xususiyatlari tahlili D.D.Borasulovning maqolasi³⁷ da berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarixiy-badiiy asar tarjimasida asliyat uslubiy vositalarning berilishi”** deb nomlanuvchi uchinchi bobining birinchi **“Tarjimada saj’ san’ati saqlanishining ahamiyati”** faslida solnomada tarixiy koloritni yuzaga chiqarishda saj’ san’atining tarjimada saqlanishi alohida ahamiyatga ega ekanligi asoslanib, mazkur jarayonda erishilgan yutuq va kamchiliklar tahlil qilingan.

“Saj’” soʻzi “qumri, bulbul, toʻti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qoʻshilib, joʻr boʻlib ketishi”³⁸ni bildiradi. Tarjimashunoslikda saj’ san’atining tarjima matnlarida qayta yaratilishi borasida Z.O.Jumaniyozov³⁹, A.Abdullajonov⁴⁰, D.Xoshimova⁴¹, O.M.Fayzulloev⁴² va Sh.Shergʻoziyev⁴³lar

³⁶ Abdelhamid Elewa. Features of translating religious texts. Journal of Translation, 10(1). – 2014. – Pp.25-33.

³⁷ Borasulova D.D. “Firdavs ul-iqbol” asaridagi diniy birikmalar va ularning tarjimasida xususida. Oʻzbek milliy adabiyoti namunalari chet tillariga tarjima qilish va targʻib qilishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B.107.

³⁸ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.12.

³⁹ Жуманиёзов З.О. “Равшан” достони немисча таржимасида миллийликни қайта яратиш: Филол. фан. номз. ...дисс. – Урганч, 2008.

⁴⁰ Абдуллажонов А. Муножот таржимасида мазмун ва шакл бирлиги // Содружество языков. Содружество культур (Материалы 4-республиканской научной конференции). – Наманган, 2017. – Б.91.

⁴¹ Хошимова Д. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2018.

⁴² Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимасида берилиши (Болалар фольклори ва эртақлар мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2019.

tadqiqotlar olib borishgan. “Firdavs ul-iqbol” asarida Ogahiy saj’ning uch turi (*saj’i mutavoziy, saj’i mutarraf, saj’i mutavozin*)⁴⁴ dan ham mohirona foydalangan.

Ishda “Firdavs ul-iqbol”dagi saj’lanishlarni quyida tasnif bo’yicha tahlilga tortilgan:

1. Tarixiy shaxslar tavsifi bilan bog’liq saj’lanishlar: “...*jahon fozillarining afzali va zamon komillarining akmali, fazlu donish tengizining timsohi, aqlu binish safinasining mallohi, ilm quyoshining matla’i va kamol ahlining marja’i... halloli mushkuloti daqoyiq, kashshofi g’atoyoyi haqoyiq, fazoilmaob, kamolotintisob, ya’ni Munis mirob...*” (FI, 394). \ \ “the most erudite of the learned men of the world, the most excellent of the perfect men of his time, the crocodile of the sea of learning and *erudition*, the pilot of the ship of knowledge and wisdom, the rising place of the sun of *knowledge* and the *refuge* of the *people of perfection*, who unravels the *difficulties* of *subtle* meanings and lifts the veil from *verities*, the embodiment of excellency and perfection, <the exalted and honorable master (ustad)>, that is the late Munis Mirab...” (FI, 407).

2. O’rin-joy tasviri bilan bog’liq saj’lanishlar: “Va aksar qullo va bilod xarob bo’lub, kentlar va mazralar besha va *jangaliston* va ko’lot yerlar *nayiston* bo’ldi.” (FI, 134) \ \ “Most of the towns (*qila’* va *bilad*) became desolate. Rural *regions* (kentlar) and *fields* (mazra’alar) became *thickets* and *jungles*” (FI, 109).

3. Jang-u jadallar bilan bog’liq saj’lanishlar: “Ul mavzeda Xolnियोz yuzboshikim, “qaroqchilik” laqabig’a, *mashhur* va Sharif *pahlavon* kim falak fili aning ollida *notavon* va *maqsurdur*. 30 kishi bilakim, ba’zi *piyoda* va ba’zi *suvora* erdilar. Ul hazratning *ishorati* lozim *sharofati*, imdodi ila Elchin qal’asig’a *shabixun urub*, bir *bosh kesib* va bir kemani barcha ashyosi bila *o’lja qilib* kelturdilar” (FI, 465). Afsuski, bu parcha tarjimasida asliyatdagi *saj’i mutavoziy* tilning ichki imkoniyatlari sababli ifodalanmagan.

4. Ov jarayoni bilan bog’liq saj’lanishlar: “Va har kun bir nav *shikorandozliq* bila o’zgacha *inbisot* ko’rguzub va har soat bir turduk *saydpardozliq* bila o’zga nav *nishot* ohangin tuzub, manzil-bamanzil ko’chub, Xo’jaeli navohisin muzribi xayyomi *iqbol* va muqarri borgohi *ijlol* qildi.” (FI, 298) \ \ “Engaging every day in hunting and other amusements, he passed from station to station, until he set up his camp in the region of Khoja-eli” (FI, 296).

Asliyatdagi saj’ san’atining tarjimalari tahlili umumlashmasi:

1. Asliyatdagi saj’ san’ati turlari ikkinchi tilning ichki imkoniyatlari asosida mutarjim tomonidan tarjima matnida san’at sifatida saqlab qolingani, ya’ni asliyatdagi saj’ san’ati bilan tarjima shaklida to’liq muvofiqlik saqlangan: *xoqon – khaqan, sulton – sultan, numerous – bisyor* va *beshumor – countless*.

2. Asliyatdagi saj’ san’atining tarjima matnida boshqa birliklarda saqlanib qolishi, ya’ni tarjimada bu san’atning qisman muvofiqligi ta’minlangani: “Mashhurdurkim, aning bila ov orasida ko’p hikoyati *ajiba* va mutoibot *g’ariba* voqe bo’lubdur” (FI, 94) \ \ “It is well known that there are many amusing *stories*

⁴³ Sherg’oziyev Sh. “Boburnoma” matnidagi shaxslar tasvirida saj’i matavoziyning o’rni va ularning inglizcha tarjimalarda aks etishi. FarDU ilmiy xabarlar. – 2022. – №3. – B.413.

⁴⁴ Ismoilov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi. Monografiya. – Toshkent: Lesson press, 2023. – B.84.

and wonderful *pleasantries* of their relationship, including the following” (FI, 50).

3. Asliyatda keltirilgan saj’ namunalari tarjima tilining lingvistik imkoniyatlardan kelib chiqib, saj’ san’ati tarjimada saqlab qolinmagan. Biroq asliyatning mazmun-mohiyati saqlangan, ya’ni muvofiglikning mavjud emasligi, lekin pragmatik tarjima amalga oshgan: “Muhammadamin inoq bag’oyat donishmand va *kordon* va maishatdo‘st va *komron* erdi” (FI, 159) \\\ “Muhammad Amin Inaq was very learned and clever, (304) with a taste for life and pleasure” (FI, 144).

Bobning ikkinchi fasli “*Tarixiy koloritni ifodalashda uslubiy figura va troplarning tarjimada saqlanishi*” deb nomlangan va unda asliyatdagi o‘xshashlik asosida paydo bo‘lgan (*epitet, o‘xshatish, metafora, metonimiya, perzonifikatsiya*), matniqiy va emotsional mazmun asosida paydo bo‘lgan (*giperbola, oksyumoron, antiteza*), tovush va so‘zlar takrori asosidagi uslubiy figura va troplar (*alliteratsiya, takror va anafora*)ning tarjimada berilishidagi mutarjimning mahorati tahlil qilingan.

Badiiy matn tarjimasi tarjimonning nafaqat lingvistik bilimini, balki uning asliyatdagi badiiy-estetik go‘zallikni tarjima tilida ham muvaffaqiyatli qayta yaratish mahoratini aks ettiruvchi omil hisoblanadi. Uslubiy figuralar tarjimasi muammo tug‘diradigan masala hisoblanadi. Chunki uslubiy figura va troplar muayyan xalqning kundalik hayoti va tafakkur mahsuli sanaladi. Shu bois bir tilda mavjud ko‘chim namunalari boshqa tilda takrorlanmasligi mumkin. O‘zbek tarjimashunosligida K.A.Sidikov⁴⁵, U.Yo‘ldashev⁴⁶, G.Y.Rofiyeva⁴⁷, Z.M.Bazarov⁴⁸ va N.B.Xodjayeva⁴⁹larning ilmiy tadqiqotlarida uslubiy figura va troplarning tarjimada saqlanishi masalasi haqida izohlar keltirilgan.

Asliyatda o‘xshashlik asosida paydo bo‘lgan ko‘chimlar:

Sifatlash: a) shaxslarni tavsiflovchi: “*Najobatpanoh, diyonatogoh, ixloskesh, sadoqatandesh* Abdiboy va Gadoyniyozkim” (FI, 715) \\\ “Abdi Bay and Keday Niyaz, who were the mushrifs” (FI, 332); b) joy nomlarini tavsiflovchi: “Va havliyi ishratafzoda ul hazratning nuzuli farhat shumuli uchun to‘shalgan maxsus qasri jannatosokim, *safovu ravnaqda g‘ayrati Qasri Shirin va rashki Xavarnaq* erdi, *bahor tashrifidin gulistoni jinon va bog‘i rizvon yanglig‘ tarovoti toza va nazohati beandoza* bag‘ishladi”. (FI, 401); c) diniy tushunchalarga asoslanuvchi: “Abulg‘ozi Muhammadrahim Bahodirxoni *jannatmakon* saltanat niginin himmati

⁴⁵ Сидиков К.А. “Кутадғу билиг” тўртликларининг инглизча бадий таржима хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010.

⁴⁶ Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2017.

⁴⁷ Рофиева Г.Й. Ўзбек тилидан француз тилига концептуал метафоралар таржимасининг ўзига хослиги (Эркин Аъзам асарлари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2020.

⁴⁸ Базаров З.М. Бадий таржимада лексик-стилистик бўёқдорликни сақлаш муаммолари (А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг инглизча таржималари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2020.

⁴⁹ Ходжаева Н.Б. Премчанд асарлари ўзбекча таржималарининг лексик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2019.

barmog‘iga soldi” (FI, 396) \\\ “Muhammad Rahim Bahadur Khan, [now] residing in *paradise*, put the seal-ring of monarchy on his finger” (FI, 405).

O‘xshatish: a) kishi nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlar: *) payg‘ambarlar nomlari bilan bog‘liq: *Masihodek* (FI, 241) \\\ *like Jesus* (FI, 235); *) shaxs nomlari bilan bog‘liq: *Hotami Toyi* ehsonining fasonasi naqdi qalbddek \\\ (FI, 691) \\\ *surpassing the legendary generosity of Hatim-i Ta‘i” (FI, 321); b) tabiat hodisalari bilan bog‘liq: *) quyosh bilan bog‘liq: *quyoshdek* (FI, 261) \\\ *like the very sun* (FI, 277); *) oy (qamar), yulduz tasviri bog‘liq: *mahi nav*” (FI, 262) \\\ *like a new moon* (FI, 258); *) shamol, yashin, chaqmoq bilan bog‘liq: *shimoli kibi*” (FI, 261) \\\ *like a northern wind*” (FI, 257); *) yomg‘ir bilan bog‘liq: *seli ofat va muhiti maxofat yanglig‘* (FI, 475) \\\ “... by his order, raided and plundered the environs of the fortress and surrounded it” (FI, 521). c) hayvon va parrandalar bilan bog‘liq: *sheri g‘arrandadek, ruboh misol* (FI, 451) \\\ *like roaring lions, like foxes* (FI, 493); d) xayoliy-to‘qima obrazlar nomi bilan bog‘liq: *ajdahoyi damon yanglig‘* (FI, 484) \\\ *dragon-like* (FI, 531) va boshqalar.

Metafora. Bu o‘rinda *noirayi g‘azabi podshohiy mirvahai saxati ilohiy bila ishtiol topib* \\\ *flame of khan’s wrath flared up, orazi gulgun* \\\ *rosy (g‘ulg‘un) cheek, ashki hasrat* \\\ *the tears of grief, ajal sharbati* \\\ *drink called death* kabi metaforalar tahlilidan Y.Bregel tarixiy asardagi metaforalar ifodalagan sharqona go‘zallikni tarjima jarayonida saqlab qolishning uddasidan chiqqan va asliyatdagi metaforani tarjima tilidagi standart muqobili yordamida tarjimada saqlashga harakat qilgan, deya xulosa qilish mumkin.

Metonimiya. O‘zbek tarjimashunosligida, jumladan, U.Yo‘ldoshev tadqiqotlarida metonimiyalarni tarjima qilish uchun tarjima strategiyasi sifatida so‘zlarni qo‘shish, o‘zgartirish yoki perifraza qilish kabi usullardan foydalanish muvofiq usullar deb hisoblanadi⁵⁰. Bu fikrni Y.Bregel tarjimasi misolida ham dalillash mumkin: “...*besh-o‘n qal‘a* andin *suv ichadur*” (FI, 93) \\\ “... *five or ten towns (qal‘a) drink its water*” (FI, 49). Asliyatda *besh-o‘n qal‘a* birikmasi metonimik ma’noda ishlatilgan bo‘lib, *qal‘a* “shu joyda yashovchi aholi”ga nisbatan keltirilgan. Aynan shu ko‘chimni reseptor tiliga shakl va mazmun birligida bir xil ekvivalentlar orqali o‘girilganligi adekvat tarjimani yuzaga keltirgan.

Personifikatsiya. Bu tropning tarjimasi jarayonida tarjimon ikkita usuldan: tarjimon majoziy ma‘noni tarjima tiliga o‘girishi yoki mazmunni ko‘chimlarsiz ifodalashi mumkin⁵¹: “*Jazoir bila zanburak tortib un...*” (FI, 195) \\\ “*The falconets (jaza‘ir) and the sviwel guns (zanbarak) roared...*” (FI, 181). Demak, tarjimon muallifning uslubini tarjimada saqlab qolishning ham uddasidan chiqqan va muallif tomonidan keltirilgan perzonifikatsiya tropi reseptor tilida to‘la saqlangan.

⁵⁰ Йўлдошев У. Бадий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Монография. – Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллар институти, 2022. – Б.64.

⁵¹ Masroor F. & Pourmohammadi M. (2016). Problems in Translating Figures of Speech: A Review of Persian Translations of Harry Potter Series. *International Journal of English Language & Translation Studies*. 4(4). – Pp.131-143. Retrieved from www.eltsjournal.org

Evfemizm. Tarjimon asliyatdagi evfemistik iboraning tabiatini yaxshi anglab yetgan holda, tarjima tilidagi evfemizm yoki boshqa birliklar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilishi – tarjimon uchun muhim jihatlardan sanaladi⁵². “... bir ohi sard jigari pur dardidin tortib haqq‘a *jon taslim qildi*” (FI, 413) \\\ “... gave a heavy sigh from the bottom of his heart, and *yielded his soul*” (FI, 204).

Bu faslda yana giperbola, oksyumoron, antiteza, allyuziya kabi matniiy va emotsional mazmun asosida paydo bo‘lgan troplar hamda alliteratsiya va anafora kabi tovush va so‘zlar takrori asosidagi uslubiy figura va troplarning tarjimada saqlanishidagi o‘ziga xosliklari ham tahlilga tortildi:

Giperbola: “Va ul mavzeda jonsiz badanlar tufrogidin *tallar hay‘ati oshkor*, balki ul *ulug‘ tog‘lar surati namudor bo‘ldi*” (FI, 477) \\\ “The *dead bodies covered the ground at that place like mounds or even high mountains**” (FI, 522). Demak, manba tilidagi aksariyat mubolag‘ali bayon usullari tarjimada mayda tafsilotlari bilan birgalikda saqlab qolingan.

Oksyumoron: “Alar Davlat Girey bila *gurg oshtiy qilib...*” (FI, 99) \\\ “They made a *false peace* with Dawlat Keray” (FI, 57).

Antiteza: “... andoqkim, zarbi teg‘ bila *foniy olamni zabt qaydig‘a chekarsan*, barakati adl bila *boqiy jahonni dag‘i qabzai tasarrufingga kirguz*”. (FI, 39) \\\ “when you conquer the *transient* world with the blows of your sword, you will also capture the *everlasting* world with the blessing of your justice” (FI, 11).

Allyuziya (intertekstuallik): “Shoxlari Sidrag‘a payvand o‘lub, *Resha o‘kuz tuklarig‘a band o‘lub*” (FI, 269) \\\ “Their branches touch the lotus-tree of heaven, *Their roots are tied to the hair of the bull that supports the earth*” (FI, 265).

Alliteratsiya: “Barcha jon o‘lguvchidir” fahvosi bila *ajal sharbati* noguvorin lojur‘a chekti.” (FI, 92) \\\ “according to the words “Every soul shall taste of *death*”, *drank* to the *dregs* the unpalatable *drink* called *death*” (FI, 47).

Anafora:

Gahe tafsirdin aylab suolot,

Gahe ilmi hadis ichra maqolot.

Gahe fiqx ichra zikr aylab masoil,

Alarga dambadam ortib fazoil (FI, 280) \\\

At time they discussed questions of Qur‘an interpretation (*tafsir*),

At others, some matters of the science of Tradition (*hadith*).

At times they mentioned problems of jurisprudence (*fiqh*),

Adding, now and then, to their virtues (FI, 274).

XULOSA

1. Tarjima borasidagi ishlarda manba tilining ekspressiv vositasi sifatida nasriy matnning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi va asarning uslubiy individualligini, milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi so‘zlarga nisbatan chet el tarjimashunoslari tomonidan “madaniy elementlar”, rus olimlari tomonidan esa aksariyat o‘rinlarda “realiya” termini qo‘llanilgan, o‘zbek tarjimachiligida

⁵² Larson M.L. Meaning-based translation (2nd ed.). – Lanham, Maryland: University Press of America, Inc., 1998. – P.127.

milliyligni ifodalovchi soʻzlar “realiyalar”, “xos soʻzlar”, “milliy kolorit birliklari” atamallari bilan ifodalangan.

2. Asliyatning moddiy, maʼnaviy, siyosiy va iqtisodiy hayotini oʻzida mujassam etuvchi realiyalar ham milliy, ham tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatiga ega. Tarixiy asarlar tarjimasida davr ruhini ifodalovchi realiyalar arxaizm va zamonaviy tilimizda sinonimlarga ega boʻlmagan istorizmlar orqali amalga oshirilgan. Bu birliklar tarjima jarayonida makon va zamon koloritini yaratuvchi muayyan lugʻat guruhi sifatidagina emas, balki tarixiy maʼlumotlardan ogoh etishda tarixiy-madaniy komponentli leksik birliklar, yaʼni tarixiy realiyalar deb yuritiladi.

3. Tarjimada milliy va tarixiy xususiyatga ega leksik birliklar tarjimasida borasida dunyo olimlari tomonidan koʻplab tarjima usul va strategiyalari taklif qilingan boʻlib, keltirilgan usullar nomlanishi jihatidan turlicha boʻlishiga qaramasdan, vazifasi jihatidan bir-birini toʻldiruvchi tarjima strategiyalari sanaladi. Tahlilga tortilgan “Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tarjimasidagi tarixiy realiyalar tadqiqida E.Ochilovning takliflari nisbatan asosli deb topildi.

4. Tarixiy asardagi mutlaq hukmdor (monarx) tushunchasini ifodalovchi birliklar, hukmdor vorisi maʼnosini anglatuvchi soʻzlar, davlat boshqaruvining turli lavozimlarini anglatuvchi mansab va unvon nomlari hamda saroydagi vazifa-amallarga oid mavzuiy guruhlardagi tarixiy realiyalarni tarjima tiliga oʻgirishda Y.Bregel barcha usullardan samarali foydalangan. Ammo aksariyat oʻrinlarda transliteratsiya va analog usullaridan hamda kamdan kam hollarda kalkalash usulidan foydalangan. Shu bilan birga, bu vositalar tarjima matni mutolaasida kitobxon tomonidan qiyinchiliksiz qabul qilinishi uchun deyarli barcha hollarda tarjima nashri ilovasida izohlangan.

5. Tarixiy asardagi maishiy leksikani oziq-ovqat, ichimliklar; turar-joy binolari; uy-roʻzgʻor buyumlari; kiyim-kechak va bosh kiyimlar kabi mavzu guruhlariga ajratish mumkin. Asliyatdagi baʼzi oziq-ovqat va uy-roʻzgʻor buyumlariga oid realiyalar tarjima matnidan tushirib qoldirilgan, turar-joy binolari va kiyim-kechaklarni ifodalovchi leksik birliklar tarjimasida aynan bir realiyalarning tarjimasida ikki xil analogdan foydalangan holda matnda soʻz va birikmalar takrorining oldi olingan. Ayrim tarixiy realiyalarning asardagi milliy-tarixiy koloritni aks ettirish jihatlari tarjima matnida toʻliq ifoda qilinmagan va bu xususda tarjima takliflari keltirib oʻtildi.

6. Tarixiy asar tarjimasida tarixiy va diniy-mifologik terminlar tarixiyligni belgilovchi unsurlar sifatida tadqiq etilib, asl nusxadagi tarixiy va mifologik qahramonlar nomlari tarjima jarayonida tarjima nashri ilovasida izohlash orqali transliteratsiya qilinishi bilan birga, tarjimon ham bu birliklar borasida shaxsiy fikrlarini bildirgan. Tarixiy va mifologik markerlangan birliklar tarjimasida baʼzi holatlarda batafsil izohlangan boʻlsa, boshqa vaziyatlarda realiyalar qisqa izohlanish bilan kifoyalangan.

7. Asliyatda keltirilgan diniy realiyalarning mutlaq iloh, paygʻambar va jannat konseptlarini ifodalovchi soʻzlar tarjimasida tahlilida mutlaq iloh tushunchasini ifodalovchi muqaddas soʻzlar faqat reseptor tilidagi bitta analog yordamida ifodalanib, tarjimon asliyatdagi diniy eʼtiqodga nisbatan betaraflik

g'oyasini saqlagan. Nazmiy qismlarda keltirilgan payg'ambar konseptini anglatuvchi realiyalar tarjimaning ba'zi o'rinlarida tushirib qoldirilgan.

8. Tarixiy koloritni ifodalashda saj' san'atining tarjimada saqlanishi asliyat badiiyati ifodasi tarzida talqin etilib, ohangdoshlik, musiqiylik, tasvirning badiiy estetik jihatlari qayta aks etishi tarjimon poetikasi sifatida qabul qilinadi. Solnoma tarjimasidagi transliteratsiya usuli orqali o'girilgan birliklar qatnashgan saj'lanuvchi qismlar to'liq saqlangan, shu bilan birga, asliyatdagi ayrim saj'lanmagan tarkibiy qismlar tarjimada saj' tamoyillariga bo'ysundirilgan. Asliyatdagi tarixiy shaxslar tasviriga oid saj'lanuvchi qismlar tarjimada mazmun saqlangan holda, faqat oddiy bayon shaklida berilgan.

9. Solnomadagi epitetlar deyarli tarjima matnida uslubiy figura vazifasida to'liq saqlanmagan, o'xshatishlar faqat "like" leksik vositasi yordamida tarjima tilida keltirilgan, ayrim takror tasvirlar hamda ba'zi ko'chimlarning tarjimada tushirib qoldirilishi asar tarjimasining sifatiga salbiy ta'sir etmagan. O'zbek va ingliz tillaridagi fonetik farqlanishlarga qaramasdan, tovushlar va so'zlar takrori asosida paydo bo'lgan troplarning tarjimada saqlanishi tarjimon bilimi va mahoratini belgilaydi.

10. Y.Bregelning mahoratli tarjimon sifatida o'zbek xalqi madaniyati va tarixini chuqur o'rgangani mumtoz asardagi tarixiy koloritni yaxshi anglashiga hamda tarjimada asliyat ruhini saqlashiga zamin bo'lgan. Mutarjim tarjimashunoslikda qat'iy o'rnatilgan tarjima usullari yoki strategiyalarining mavjud emasligiga asoslanib, tarjima jarayonida davr ruhini qayta yaratishda barcha usullardan kompleks tarzda foydalangan. Ushbu asar bayon uslubining og'irligi va tilining murakkabligiga qaramay, tarjima tili xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va asar muallifi maqsadlarini nazarda tutgan holda tarjimada tarixiy koloritni berishni uddasidan chiqqan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 AT URGENCH STATE UNIVERSITY
NAMED AFTER ABU RAYKHON BERUNI**

**URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER ABU RAYKHON
BERUNI**

OTAJANOVA LOLA OZODOVNA

**THE CONVEYANCE OF HISTORICAL COLOR IN THE TRANSLATION
OF KHIVA KHANATE CHRONICLE**

(as an example of Y.Bregel's translation of the work "Firdaws al-iqbal")

**10.00.06 – Comparative Study of Literature,
Contrastive Linguistics and Translation Studies**

**DISSERTATION ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences**

The theme of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2025.1.PhD/Fil4459.

The dissertation has been prepared at Urgench State University named after Abu Raykhon Beruni. The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the scientific council website www.urdu.uz and on "Ziyonet" Information and Education portal website www.ziyonet.uz.

Scientific consultant:	Yuldashev Doniyor Taxirovich Doctor of Science in Philology, docent
Official opponents	Chuponov Otanazar Otajonovich, Doctor of Science in Philology, docent Teshaboeva Ziyoda Qodirovna Doctor of Science in Philology, docent
Leading organization	Karakalpak State University

The defense of dissertation will be held on "17" April 2025 at 9 : 00 at the session of Scientific Council PhD03/30.12.2019.Fil.55.02 on award scientific degrees at the Urganch State University named after Abu Raykhon Biruni. Address: 220100, Urgench, Hamid Alimjan street, 14. Tel: (99862) 224-67-00, fax: (99871) 224-67-00; e-mail: fil-ik.@urdu.uz

The dissertation available in the Information-Resource Centre of the Urganch state university named after Abu Raykhon Biruni. (registered by the number A-1657). Address: 220100, Urgench, Hamid Alimjan street, 14. Tel: (99862) 224-67-00, fax: (99871) 224-67-00. E-mail: arm@urdu.uz

The abstract of the dissertation was distributed on "26" March 2025.
(Register protocol on "26 March" 2025).



D.K.Gayipov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Philology, Professor

S.S.Atajanov
Scientific secretary of the scientific
council awarding scientific degrees,
Doctor of Philosophy in Philology,
Docent

A.D.Urazboev
Chairman of the scientific seminar at the
scientific council awarding scientific
degrees, Doctor of Science in Philology,
Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

The actuality and necessity of the dissertation topic. In the research of world Translation studies, the formation phases of the field, its principles, theoretical foundations, objectives, problems, translation methods, the rate of coincidence to the source text, the identification of extralinguistic similarities and differences in the languages of various nations and ethnic groups, as well as the importance of overcoming these differences in the translation process, in general, the linguistic characteristics of translation have been explored from various aspects. In this regard, significant scientific research works by English, German, and Russian translators serve as a theoretical and practical basis for further research. In fact, in this direction, the study of language units that make up the national-historical identity of the source, revealing the translation skill of the translator is considered one of the urgent issues of the Theory of Translation and Comparative Linguistics.

In the research of world Translation studies, it has been clearly demonstrated that translation, based on linguistic activity, plays a significant role in shaping international relations, disseminating knowledge, and transmitting information. In today's globalized world, skilled translators who have a deep understanding of the source language, its essence, the target language, and culture are required to build bridges for collaboration. However, there is still no general consensus on which method or rule to apply in order to achieve an accurate and complete translation product. In this regard, linguistic and extralinguistic problems of translation, especially, the issue of translation of cultural units in the source language called by various terms such as *realia*, *cultural terms*, *cultural words*, *culture-bound elements*, *culture-bound concepts*, *culture-specific items*, *lacunae*, *exoticisms*, *alienism*, *localisms*, *ethnographies*, *probels*, *linguoculturemes*, *xenism*, *non-equivalent lexicon*, *specific words*, is of urgent importance.

In Uzbek translation studies, the historical foundations of the field's formation, the theory and practice of translation, issues of originality and translation compatibility, problems in translation and ways to solve them, as well as several scientific researches related to translation criticism have been carried out. As our President has put it, "In our country, countless works that are the priceless property of world literature, have been translated, winning the hearts of readers, and a unique creative school has been formed in the field of literary translation and translation studies"⁵³. The uniqueness and historical nature of the original in today's translation studies, and the expression of these in translation are considered a scientific necessity, along with the translator's skill and the issue of word choice.

Especially, the translation of "Firdaws al-iqbal" into foreign languages, and the scientific research on the translator's skill in ensuring the coincidence of translation units with the original have not been carried out on a monographic scale. The translation of this work, the issues of the translator's method and skill, as well as the study of the historical-literary work from a linguocultural and linguopoetic

⁵³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги, 2018 йил, 7 август.

perspective, are important in identifying the unique aspects of translation studies, and in developing practical and theoretical rules for translation. Therefore, our research, which has been conducted as a result of “understanding our national identity, studying the ancient and rich history of our Homeland, strengthening scientific research in this area, and fully supporting the activities of scholars in the humanities”⁵⁴ is dedicated to the methods of translating realias that express the similar and unique national-cultural aspects of historical units in Uzbek and English languages, determining the necessity and significance of the dissertation topic.

This dissertation research serves to a certain extent the implementation of the tasks specified in PD-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019, “On Approving the Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”, PD-5850 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019, “On Measures to Fundamentally Enhance the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language”, PD-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; the resolutions PD-2909 dated April 20, 2017, “On Measures for Further Development of the Higher Education System”, PD-376 dated May 18, 2018, “On Measures to Improve the System of Translating and Publishing the Finest samples of World Literature into Uzbek and the Masterpieces of Uzbek Literature into Foreign Languages”, PD-3775 dated June 5, 2018, “On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Education Institutions and Ensure Their Active Participation in the Comprehensive Reforms Being Carried Out in the Country”; as well as the resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 610 dated August 11, 2017, “On Measures to Further Improve the Quality of Teaching Foreign Languages in Educational Institutions” and other relevant normative-legal documents.

Compliance of the research with the priorities of the republic’s science and technology development. The Dissertation research was carried out by the priority direction of the Republican Science and Technology Development I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of the innovative economy”.

The level of study of the problem. In world translation studies, the theoretical foundations and principles of the field, the classification of translation methods, and the preservation of cultural units that reflect the economic, social, cultural, religious, historical, and ethical thought levels of specific linguistic representatives in the source text have been scientifically and practically researched, with a focus on ensuring adequacy in translation. In particular, scholars in translation studies such as P.Newmark, B.Nedergaard-Larsen, H.Vermeer, Ch.Nord, D.Katan, J.Pedersen, M.Baker, J.F.Axielá, M.Loponen, R.Leppihalme, and C.A.Schäffner have conducted scientific research on the problems of preserving

⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги “Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

the cultural units of the source in translation and have recommended their conclusions⁵⁵.

